



KISHILIK JAMIYATI RIVOJINING ILK BOSQICHLARIDA MULKKA VA MULKIY HUQUQQA MUNOSABATNING SHAKLLANISHI

Ubaydullayev Shoxruxbek Ortig'ali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi
kurashish va komplaens nazorati yo'nalishi magistri
shohrukbeku179@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10069169>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2023

Accepted: 30th October 2023

Online: 31th October 2023

KEY WORDS

Mulk, mulkiy huquq, mulk
shakllari, Rim huquqi, Antik
davr, mumtoz g'arb
yurisprudensiyasi, Avesto, Islom
huquqi.

ABSTRACT

*Mazkur maqolada mulk huquqini himoya qilishning
ijtimoiy zaruratini o'rganish kishilik jamiyati rivojining
turli bosqichlarida mulkka va mulkiy huquqqa
munosabatning shakllanish masalalari yoritilgan.
Shuningdek, Antik davr va o'rta asrlardagi G'arbiy
Yevropa, Arab va Osiyo davlatlarida mulkiy
munosabatlarning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan.*

Mulkka, tadbirkorlik faoliyatiga tajovuz qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalar rivojlanish tarixi mulk huquqining daxlsizligi hamda uning himoya qilinishi bilan bevosita bog'liq kechgan. Mulk huquqini himoya qilishning ijtimoiy zaruratini o'rganish kishilik jamiyati rivojining turli bosqichlarida mulkka va mulkiy huquqqa munosabatning shakllanishidan kelib chiqqan.

Jumladan ibtidoiy jamoa davrida o'zaro mehnat natijasida qo'lga kiritilgan mulk qabila yoki urug'ga tegishli bo'lgan bo'lsa, ziroatchilik va chorvachilik hisobiga mehnat unumdorligining o'sishi evaziga muayyan oilaga tegishli mulk shakli paydo bo'la boshladi. Mulkiy tengsizlik taraqqiyotning navbatdagi bosqichini boshlab berdi.

Xususiy mulk haqidagi dastlabki huquqiy qarashlarning shakllanishi antik davrga borib taqaladi. Jumladan, m.a. 1792 – 1750 yillarda qadimgi Bobilda hukmronlik qilgan Xammurapi qonunlari to'plamida mulk huquqini hamda uning turli shakllari – podshohlik, ibodatxona, jamoa va shaxsiy mulk mavjud bo'lishini belgilagan. Mulk egasi uni, xususan yerni sotishi, ijaraga berishi, meros qilib qoldirishi mumkin bo'lgan, biroq qonunlar to'plamida mulkka nisbatan cheklov yoki taqiq uchramaydi¹.

Rimda yerga nisbatan davlat va jamoa egaligi, boshqa mulk shakllariga nisbatan esa shaxsiy egalik o'rnatilgan. XII jadval qonunlarida mulkka bo'lgan huquq *dominium* atamasi bilan ifodalangan bo'lsa, keyinchalik milodning III asridan boshlab Rimda xususiy mulkka nisbatan *proprietas* atamasi qo'llanila boshlandi². Bu faqat atamaning o'zgarishi bilangina emas, balki unnig huquqiy tabiati bilan ham bog'liq edi. Xususan, *proprietas* atamasi *dominium*

¹ Всеобщая история государства и права: Учебник/Под. ред. проф. К.И.Батыра. –М., 1998. –С.56.

² <https://jurisprudence.club/pravo-grajdanskoe/istoriya-ponyatiya-sobstvennosti.html>



atamasiga qaraganda birmuncha kengroq, ayniqsa *proprietas* mulk huquqi ustuvorligi, mutloqligi va daxlsizligini anglatar edi³. Yustinian kodekslarida ham xususiy mulkka nisbatan shunday yondashuvni ko'rish mumkin. Undagi *plena in re potestas*⁴ mulkka nisbatan mutloq egalik, daxlsizlik va hokimiyat mazmunini anglatadi.

Rim huquqshunoslari xususiy mulkni "muqaddas mulk" deb hisoblab, uning daxlsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishgan⁵.

Rim huquqida mulkdor mulk bilan bog'liq huquqlarga ega bo'lishi nazarda tutilgan:

- *jus possidendi* – egalik qilish;
- *jus utendi* – foydalanish;
- *jus abutendi* – tasarruf etish;
- *jus fruendi* – foyda olish;
- *jus vindicandi* – himoya qilish.

Keyinchalik *jus fruendi* va *jus vindicandi* boshqa huquqlar bilan birlashib ketgan⁶.

Qadimgi Rimning qudrati ham mulkning daxlsizligini ta'minlash, uning iqtisodiy taraqqiyotning vositasi sifatida o'zni va ahamiyatini huquqiy jihatdan kafolatlashida namoyon bo'lar edi.

Rim huquqida mohiyatiga ko'ra mulk huquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning vositasi o'laroq, huquq sub'ekti sifatida mulkdor o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish chog'ida boshqa shaxslar bu huquqni hurmat qilishi va buzmasligi lozim edi.

Antik davrdagi davlatlarda mulkiy munosabatlarning o'ziga xos jihati bu *quldorlik bilan bog'liq hamda qul o'z egasining mulki* sanalgan.

Rim huquqshunoslari xususiy mulk egasi to'g'ridan-to'g'ri ta'qiq mavjud bo'lmagan hollarda *o'z mulki bilan bog'liq har qanday harakatni amalga oshirishi* mumkinligi to'g'risidagi prinsipni ilgari surishganki, bu hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Jumladan, mumtoz g'arb yurisprudensiyasi ham rim xususiy huquqi singari mulk huquqiga ashyo – mulk ustidan to'liq va mutloq hukmronlik sifatida qaragan. 1804 yildagi Fransiya Fuqarolik kodeksining mashhur 544-m. mulk huquqini "*mulkka nisbatan mutloq shaklda foydalanish va tasarruf etish huquqi*" shaklida mustahkamlagan. Xuddi shunday qoida Germaniya fuqarolik Nizomining 903-paragrafida ham "*mulkdor mulkni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishi va unga har qanday shaxs tomonidan zarar yetkazilishini bartaraf etishga haqli*" ekanligi tarzida bayon qilingan. Shuningdek, yana shunday shakl va mazmun 1907 yildagi Shveysariya fuqarolik Nizomida ham aks etgan⁷.

Mazkur davrda mulk huquqining nazariy-huquqiy bazasi yaratilgan bo'lib, undagi qator prinsiplar bugungi kun holatiga ham muvofiq keladi. Jumladan, Rim huquqida mulkdor o'z mulkiy huquqlarini amalga oshirish chog'ida boshqa shaxslar bu huquqni hurmat qilishi va

³Быков А.С. Становление и развитие института права собственности. <https://cyberleninka.ru/article/n/stanovlenie-i-razvitie-instituta-prava-sobstvennosti>

⁴ Дигесты Юстиниана. Избранные фрагменты в переводе и с примечаниями И.С.Перетерского. – М., 1984. – С. 45.

⁵ Топилдиев В. Рим ҳуқуқи. –Т: М. Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети. – Т., 2006.-95-96 б.

⁶ Римское частное право: Учебник под ред. И.Б.Новицкого, И.С.Перетерского. –М., Юристь, 1997. – С. 169-170.

⁷ Морандьер Л.Ж. Гражданское право Франции. Кн. 1. – М., 1961. –С.89.



buzmasligi shartligi belgilangan. Mulkiy munosabatlarning *quldorlik bilan bog'liqligi hamda qul o'z egasining mulki* sanalishi antik davrga xos holat. Qolaversa, Rim huquqshunoslari mulkdorning *o'z mulki bilan bog'liq har qanday harakatni amalga oshirishi* mumkinligi to'g'risidagi prinsipni ilgari surganligi mulkning ijtimoiy-huquqiy qadriyat sifatidagi ahamiyatini anglatadi.

Ilk o'rta asrlardagi milliy davlatchiligimiz tarixiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, mazkur davrda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda huquqiy manba – Avesto qimmatli manba hisoblangan. Mutaxassislar 348 bobdan iborat bo'lgan ushbu huquqiy manbada jinoyat, fuqarolik, sud huquqi normalari ham mavjudligini ta'kidlashadi⁸. Jumladan, Avestoda mulk va mulkiy munosabatlar xususida ham qator qoidalar belgilangan. Qayd etish kerakki, ushbu davrda mol-mulk taqsimoti ham asosan harbiy qudratga qaratilgan hamda mulk asosan oqsoqollar, harbiy boshliqlar va mo'tabar shaxslar qo'lida to'plangan⁹.

Avestoda xususiy mulk *gayta* deb atalgan. Mulkka egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqi bugungi kun darajasida qonun hujjati bilan qo'riqlangan bo'lmasada, o'zganing mol-mulkini undan beruxsat, kuch ishlatib tortib olish jinoyat hisoblanishi e'tirof etilgan¹⁰. Bundan harakatlar qattiq qoralangan: "Mardud bo'lsin, yo'qolsin o'g'ri va qaroqchilar"¹¹.

Avestoda to'rt toifadagi jinoyatlar ajratilgan. Ular davlatga, shaxsga, mulkka, oilaga va axloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlar bo'lib, shular orasida mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlarning differentsiatsiya qilinishi ushbu davrda mulk huquqini ta'minlashga qaratilgan normalarga ehtiyoj mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Uchinchi toifa jinoyatlar sifatida o'g'irlik, talonchilik, *boshqa shaxsning ko'chmas mulkini yoki jonli mulki (quli)ni qo'lga kiritish* bilan bog'liq qilmishlar tushunilgan¹². Ayniqsa, chorva hayvonlari alohida muhofaza qilingan.

Ilk o'rta asrlarda islom dini manbalari asosida mulk huquqi muhofaza qilingan. Milliy davlatchiligimiz tarixida islom huquqi manbalari asosida boshqarilgan o'rta asrlardagi somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlati o'ziga xos o'rin tutadi. So'z yuritilayotgan masalada bu davlatlarda islom huquqi manbalariga rioya etilishi birlashtirib turgan. Shu jihatdan, ushbu davrda mulk va mulk huquqining belgilanishi, mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanishi tarixini tahlil qilishda islom huquqining manbalari – Qur'oni karim, Sunna, ijmo' va qiyosga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Qayd etilganidek, ushbu davrda islom huquqi manbalari, xususan Qur'oni karim asosiy huquq manbai bo'lgan. Bu borada tadqiqot olib borgan A.Sh.Juzjoniy Muhammad Yusuf Musoga

⁸ Давлат ва ҳуқуқ тарихи: ИИВ олий таълим муассасалари учун дарслик. Ҳ.Т.Одилқориев, Н.П.Азизов, Ҳ.Р.Мадримов. – Т.: Ўзб. Респ. ИИВ Акад., 2013. – Б.23.

⁹ Бобоев Ҳ., Дўстжонов Т., Ҳасанов С. "Авесто" – Шарқ халқларининг бебаҳо ёдгорлиги. –Т.: ТМИ, 2004. – Б. 32.

¹⁰ Имамов Н. Ф. Авеста — источник гражданского права // Молодой ученый. 2014. — №5. — С. 353-355. — URL <https://moluch.ru/archive/64/8234/>.

¹¹ "Авесто". Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001. 90 б.

¹² Халиков А. Г. Зороастрийское право и проблема классификации преступлений // Пробелы в российском законодательстве. 2013. –№6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zoroastriyskoe-pravo-i-problema-klassifikatsii-prestupleniy>.



tayanib Qur'oni karimda jami 333 ta huquqiy oyat bo'lib, jumladan muomalat yoki fuqarolik huquqi bo'yicha 70 ta, jinoyat va jazo bo'yicha 30 ta bunday oyat mavjudligini keltiradi¹³.

Qur'oni karimda mulk huquqini muhofaza qilish, mulk huquqiga tajovuz qilishning ulkan gunoh ekanligi to'g'risida oyatlar bayon qilingan. Jumladan, Baqara surasida "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang", deb marhamat qilingan¹⁴. Hadisi shariflarda ham mulk huquqiga tajovuz qilish og'ir gunoh ekanligi uqtirilib, kishilar bundan qaytarilgan. Jumladan "Nabiy s.a.v. ...talonchi molni tortib olayotganda odamlar unga ko'zlarini tikib, qarab qolganlarida mo'min bo'lmas"; boshqa bir hadisda esa "Kim molini himoya qilayotib qatl etilsa, shahiddir..."¹⁵ deb keltirilgan.

Shuningdek, ushbu davrda savdogarlarning hayoti va mulkiga bo'lgan tajovuzlarga qarshi kurash shunchalik qat'iy bo'lganki, hatto janozasi o'qilmaydigan to'rt toifa shaxslarning biri ham aynan savdo karvoniga hujum qilgan qaroqchilar bo'lgan. Bu haqda Hidoyada quyidagicha keltirilgan: ...to'rt kishiga: bog'iyga, yo'lto'sarga, tarafkashlarga va shaharda ochiqdan-ochiq qurol ila tajovuz qiladiganlarga janoza namozi o'qish farz emasligi keltirilgan. Musulmonlarning yo'lini to'sib, kuch ishlatib molini tortib olishni qasd qilganlarga ham janoza namozi o'qilmaydi. Shaharda ochiqdan-ochiq qurol ishlatib tajovuz qiladiganlar ham yo'lto'sarlarga o'xshab ketadilar. Ularning ham janozasi o'qilmaydi¹⁶.

Boshqa bir shaxsning mulkiga tajovuz qilish qilish og'ir gunoh bo'lish bilan birga, mulkini himoya qilib vafot etgan shaxs shahid maqomiga tenglashtirilgan. Shuningdek, islom huquqida "barcha mol-mulk Allohnik" aqiydasi mustahkam o'rin egallaganligi, mulkdor huquqlarini muhofaza qilishning ustuvorligiga alohida ahamiyat berilganligi ko'rinadi.

Mazkur davrning tadqiqot uchun ahamiyatli jihati shundaki, unda turli fiqhiy manbalarda mulkdorning mulk huquqiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik va o'zaro muomalat masalasini hal etishga qaratilgan alohida bob – "G'asb kitobi" bobi mavjud bo'lgan. Lug'aviy jihatdan *g'asb* mulkni kuch ishlatib, zulm bilan tortib olishni anglatadi. Shar'iy istilohda *g'asb* deb arzigulik va muhtaram molni egasining ruxsatisiz uning qo'lidan ochiq-oydin tortib olishga aytiladi. G'asb qilingan mulknig aynan o'zi qaytarib berilishi lozim. Shuningdek, kim bironing yeriga bino qursa yoki daraxt eksa, ularni ko'chirib, yerni qaytarishga buyuriladi¹⁷.

Islom huquqi manbalarida g'asb qilingan mol-mulkning shakli, holati, tusi va boshqa alomatlari o'zgartirilganida mulk egasi va uni tortib olgan shaxs o'rtasidagi munosabatlar ham bayon qilingan.

¹³ Жузжоний А.Ш. Ислам ҳуқуқшунослиги, ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари (масъул муҳаррирлар: А.Х.Саидов, А.Мансур). – Т.: "Тошкент ислом университети", 2002. –Б.65.

¹⁴ Шайх Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. –Т.: "Тошкент ислом университети", 2014. Б.45.

¹⁵ Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. 11-жуз. Савдо, зироат ва вақф китоби. 1174-1175-ҳадислар.

¹⁶ Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. "Кифоя". –Тошкент, "Шарқ" нашриёт матба-акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2008, 1-жуз. –Б. 249.

¹⁷ Хидоя. Комментарии мусульманского права: в 2 ч. Ч. 2 Т. III-IV / Бурхануддин Маргинани; Под ред.: Гродеков Н.И.; Предисл. и вступ. ст.: Саидов А.Х. –М.: Волтерс Клувер, 2010. 656 с.



Aytish kerakki, ushbu holat biz tahlil etayotgan jinoyatlar mazmun-mohiyatiga juda yaqin keladi. Biroq, *g'asb* fiqhiy manbalarda jinoyat sifatida emas, balki muomalot (fuqarolik-huquqiy munosabat)dan kelib chiqadigan munosabat sifatida ko'rib chiqilgan.

Yuqorida keltirilganlardan kelib chiqib, mulk huquqi va mulkdorning huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi hammavaqt dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin. Agar huquq va davlat rivojining oldingi bosqichlarida mulkka bo'lgan tajovuzga qarshi kurash ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatidagina qaralgan bo'lsa, keyingi davrlarda u ijtimoiy zarurat, barqaror iqtisodiyot asosi sifatida e'tirof etila boshlandi.